



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## No5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2026



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b>	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b>	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b>	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>Barotov Umidjon Mahmud o'g'li</b>	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
<b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b> <b>Abdullayeva Gulsanam</b>	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK .....	53
<b>Kambarova Liliya Ruslanovna</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ .....	56
<b>Алибекова Саодат Лапасовна</b>	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	61
<b>Usmonova Dilfuza Iloxomovna</b>	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
<b>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</b>	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
<b>Xaydarova Kamola Axinjanovna</b> <b>Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li</b>	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	78
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b> <b>Xolmurodova Sevara Asqarovna</b>	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	84
<b>Guzal Navruzova</b>	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	88
<b>Mamayeva Diyora Kurbanbayevna</b>	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI .....	94
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH.....	100
<b>Dilfuza Xamzayeva</b> <b>Xurshid Xurramov</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH .....	106
<b>Otaxonova Roza Boboxon qizi</b>	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
<b>Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI .....	118
<b>Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	122
<b>Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li</b>	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
<b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li</b>	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI .....	133
<b>Xatamova Gavhar Kiyamovna</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	138
<b>Seitnazarov Baxadir Muratbaevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
<b>Ismailov Erkin Faxretdinovich</b>	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT .....	148
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova</b>	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI .....	154
<b>Boltayev Nazarbek Narzullayevich</b>	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
<b>Kurbanova Nigora Abduraxmanovna</b>	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
<b>Azizova Dilafruz Habibullayevna</b>	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
<b>Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi</b>	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	176
<b>Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi</b>	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	183
<b>Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....	188
<b>Tolipova Malika Saloxidinovna</b>	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	192
<b>Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich</b>	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
<b>M.I. Murodova</b>	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI .....	203
<b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
<b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	221
<b>Aipova Iroda Ikramovna</b>	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI .....	226
<b>Musayeva Shoira Azimovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
<b>Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna</b>	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
<b>Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович</b>	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
<b>Sevara Hakimova Rustam qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI .....	251
<b>Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna</b>	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI .....	255
<b>Turanov Suhrob Bahodir o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR.....	262
<b>Nazarov G'ulom Akmal o'g'li</b>	
“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQRISH USLUBIYOTI .....	269
<b>Raxshona Nabibullayeva</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	275
<b>Baxadirov Alisher Komilovich</b>	
TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	281
<b>Nomozov Umid Iskandarovich</b>	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING.....	285
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi</b>	



QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	293
<b>Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna</b>	
XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI.....	297
<b>Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi</b>	
XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI .....	302
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR .....	306
<b>Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi</b>	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.....	316
<b>Xamidova S.Ya.</b>	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	322
<b>Ro'zieva Gulchexra O'sarovna</b>	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O'TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....	328
<b>Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	333
<b>Isomiddinova Xilola Xasan qizi</b>	
ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ.....	338
<b>Муниса Турдибаева</b>	
O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQRISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	350
<b>Xamdamova Guljaxon Ablakulovna</b>	



# O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQRARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Xamdamova Guljaxon Ablakulovna**

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,  
“Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası tayanch doktoranti  
E-mail: [guljahon\\_hamdamova@mail.ru](mailto:guljahon_hamdamova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish hajmining hududlar kesimidagi dinamikasi hamda Samarqand viloyati misolida xo'jalik toifalari bo'yicha rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 2014–2024-yillar va 2021–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida sut ishlab chiqarish hajmi, sog'in sigirlar soni hamda sut narxlarining o'zgarish dinamikasi o'rganilgan.

Shuningdek, hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmi va narxlar o'rtasidagi tafovutlar hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va sut bozorida narx barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sut ishlab chiqarish, chorvachilik, sog'in sigirlar, sut narxi, dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, samaradorlik, agrar iqtisodiyot.

**Abstract.** This article analyzes the dynamics of milk production in the Republic of Uzbekistan across regions, as well as development trends by farm categories using the example of Samarkand Region. Based on statistical data for the periods 2014–2024 and 2021–2025, the study examines changes in milk production volume, the number of dairy cows, and milk price dynamics.

In addition, regional disparities in production and prices, as well as the factors influencing their formation, are identified. Based on the research findings, practical recommendations aimed at developing the livestock sector, improving production efficiency, and ensuring price stability in the milk market have been proposed.

**Key words:** milk production, livestock, dairy cows, milk prices, dehqan farms, farmer farms, efficiency, agricultural economics.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована динамика производства молока в Республике Узбекистан в разрезе регионов, а также тенденции развития по категориям хозяйств на примере Самаркандская область. В ходе исследования на основе статистических данных за 2014–2024 и 2021–2025 годы изучены изменения объёмов производства молока, численности дойных коров и динамики цен на молоко.

Кроме того, выявлены региональные различия в объёмах производства и уровне цен, а также факторы, влияющие на их формирование. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на развитие животноводческой отрасли, повышение эффективности производства и обеспечение стабильности цен на рынке молочной продукции.

**Ключевые слова:** производство молока, животноводство, дойные коровы, цены на молоко, дехканские хозяйства, фермерские хозяйства, эффективность, аграрная экономика.

## KIRISH

Sut ishlab chiqarish agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib [1], aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi [2]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [3]. Xususan, fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, naslchilik ishlarini



takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali sut ishlab chiqarish hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining turlicha shakllanishi, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi [4] hamda narxlar dinamikasidagi tafvutlar ushbu sohada chuqur ilmiy tahlil olib borishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda sut ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilish, Samarqand viloyati misolida xo'jalik toifalari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, FAO tadqiqotlarida sut chorvachiligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik tarmoq sifatida baholanib, ishlab chiqarish hajmini oshirishda mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim omil ekanligi ta'kidlangan [5].

Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, korxonalar samaradorligi innovatsiyalarni joriy etish, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali ta'minlanadi [6]. Mazkur yondashuv sut ishlab chiqarish tizimiga ham samarali tatbiq etilishi mumkin.

Gary Gereffi va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan global qiymat zanjirlari konsepsiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jumladan sut mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda qayta ishlash, logistika hamda marketing tizimlarining muhim ahamiyati asoslab berilgan [7].

OECD hisobotlarida agrar sektorda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlarining chorvachilik tarmog'ida yuqori samaradorlik berishi alohida ta'kidlangan [8].

Shuningdek, Jahon Banki tadqiqotlarida agrar oziq-ovqat tizimlarini transformatsiya qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan barqaror foydalanish hamda narxlar barqarorligini ta'minlash mumkinligi asoslab berilgan [9].

O'zbekistonlik olimlar, jumladan X. Pardayev va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakatda chorvachilik tarmog'ining hozirgi holati, uning rivojlanish muammolari hamda istiqbollari yoritilgan [10]. Ushbu ilmiy ishlarda dehqon xo'jaliklarining sut ishlab chiqarishdagi yetakchi o'rni alohida qayd etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Jumladan, sut ishlab chiqarish jarayonlarini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar va avval amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar usuli hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali sut ishlab chiqarish hajmi, sog'in sigirlar soni va narxlar dinamikasining o'zgarish tendensiyalari baholandi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sut ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar hamda sutni qayta ishlash korxonalari tanlab olindi. Shuningdek, Samarqand viloyati misolida xo'jalik toifalari bo'yicha sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish samaradorligini baholashda narxlar dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sut narxi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi [11]. Mazkur ko'rsatkich nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari darajasini, balki bozordagi talab va taklif nisbatini ham aks ettiradi.

Shu sababli hududlar kesimida sut narxlarining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish orqali tarmoqdagi iqtisodiy jarayonlarga kompleks baho berish mumkin. Mazkur tadqiqotda viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimida bir litr yangi sog'ilgan sutning o'rtacha yillik narxlar dinamikasi o'rganildi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha hududlarda sut narxlarining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2021-yilga nisbatan 2025–2026-yillarda narxlarning sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Ushbu holat, asosan, inflyatsion jarayonlar, yem-xashak narxlarining ko'tarilishi, energiya resurslari va transport xarajatlarning ortishi bilan izohlanadi (1-jadval).



1-jadval. O'zbekistonda viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimida 1 litr yangi sog'ilgan sutning o'rtacha yillik narxlarini dinamikasi<sup>1</sup>

Viloyatlar va Qoraqalpog'-iston Respublikasi	1 litr yangi sog'ilgan sutning o'rtacha yillik narxi, so'm										
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026 (yanvar-mart)
Andijon viloyati	1994	2381	3022	3684	4274	5156	5497	7533	7344	7788	8024
Buxoro viloyati	1699	1892	2366	3010	3652	3973	4633	6291	6391	6648	6927
Jizzax viloyati	1794	2056	2944	3683	4418	5063	5627	7465	7630	8253	8803
Qashqadaryo viloyati	2000	2235	2664	3366	3643	4361	5111	7230	6462	6724	7039
Navoiy viloyati	2014	2488	3017	4207	4230	6865	5829	6940	7564	7798	8048
Namangan viloyati	2021	2024	2345	3384	4150	4280	4865	6351	6685	7007	7253
Samarqand viloyati	1770	2039	2564	3803	3954	4474	5071	6359	7117	7624	8071
Surxondaryo viloyati	1700	1914	2822	3505	3835	3877	4305	6510	6275	6577	6997
Sirdaryo viloyati	1875	2184	2749	3427	3980	4240	4848	6093	6579	6882	7157
Toshkent shahri	2777	3085	3726	5883	6647	7652	7927	10178	10360	10591	11098
Toshkent viloyati	2081	2304	2771	3219	4252	5051	5612	7102	7361	8212	9047
Farg'ona viloyati	2007	2096	2621	3115	4099	4621	5384	6583	6868	7523	8003
Xorazm viloyati	1639	1753	2379	3263	3649	3942	4754	5682	6054	6308	6606
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1909	2185	3031	3794	4265	4542	5108	7105	6869	7020	8109

Hududlar kesimida eng yuqori narxlar Toshkent shahrida qayd etilgan. Mazkur hududda 2016-yilda 2777 so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2026-yilning yanvar–mart oylariga kelib 11098 so'mga yetgan. Bu esa shaharda iste'mol talabi yuqoriligi, aholi zichligi hamda bozor infratuzilmasining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Toshkent viloyati, Jizzax viloyati va Samarqand viloyati hududlarida ham sut narxlarining sezilarli o'sishi kuzatilgan.

Aksincha, Xorazm viloyati, Buxoro viloyati hamda Surxondaryo viloyatida sut narxlarini nisbatan past darajada shakllangan. Masalan, Xorazm viloyatida narxlar 2016-yildagi 1639 so'mdan 2026-yilda 6606 so'mgacha oshgan bo'lsa-da, boshqa hududlarga nisbatan past darajada saqlanib qolgan. Bu holat mazkur hududlarda sut ishlab chiqarish hajmining yetarli ekanligi va ichki bozorda taklifning barqarorligi bilan izohlanadi [12].

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilgan bo'lib, sut narxlarini 2016-yildagi 1909 so'mdan 2026-yilda 8109 so'mgacha oshgan. Bu esa hududda chorvachilik tarmog'ining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Sut ishlab chiqarish hajmi chorvachilik tarmog'ining rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi [13]. Mazkur ko'rsatkich aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Uning yillar davomida o'zgarishi tarmoqdagi tarkibiy va iqtisodiy siljishlarni aniqlash imkonini beradi.

Quyidagi 2-jadvalda 2014–2024-yillar davomida respublika viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'ib olingan sigir suti hajmi keltirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar hududlar kesimida ishlab chiqarish dinamikasini baholash imkonini beradi (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi



## 2-jadval. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'istonda 2014–2024-yillarda sog'ib olingan sigir sutining miqdori, ming tonna<sup>2</sup>

Viloyatlar va Qoraqalpog'-iston Respublikasi	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Andijon viloyati	763,2	822,1	892,6	899,2	929,5	953,4	977,8	997,3	1039,9	1089,8	1117,5
Buxoro viloyati	723,6	777,9	850,7	903,1	939,7	964,4	1001,2	1019,5	1050,4	1087,3	1130,7
Jizzax viloyati	454,6	486,7	522,4	550,9	584,1	599,4	617,7	643,3	670	689,5	711,1
Qashqadaryo viloyati	887	952,2	1022,8	1089	1124,3	1142,1	1173,4	1235,8	1274,3	1309	1378,3
Navoiy viloyati	356,6	384,9	411,3	440,6	451,6	465,5	479	494,4	517,7	536,1	563,5
Namangan viloyati	536,3	581	637,4	665,5	670,2	690,5	720,4	736,9	755,6	769,8	803,9
Samarqand viloyati	1064,6	1132,3	1227,3	1239,9	1240,2	1272,3	1305,4	1321,0	1371,2	1402,1	1456,6
Surxondaryo viloyati	705,2	748,2	777,2	804,5	842,6	863,3	881,9	907,4	935	948,8	975
Sirdaryo viloyati	268,1	287,7	318,9	317,2	341,4	350,2	356,1	372,5	382,3	395,3	414,5
Toshkent shahri	0	0	0	0	1,6	1,9	1,9	2	6,1	6,2	6,4
Toshkent viloyati	732,3	780	826,3	849,1	883,2	909,6	915,5	953,9	966,8	1019,6	1072
Farg'ona viloyati	802	854,1	909,1	921	1018,5	1033,6	1047,1	1073,9	1102,8	1137,2	1190,3
Xorazm viloyati	816,1	867,4	922,2	963,4	1012,3	1035,8	1053,7	1071,8	1098,3	1110,7	1137,4
Qoraqalpog'-iston Respublikasi	294,7	320,3	345	362,1	376,5	380,3	399	414,9	430,6	444,1	466
Jami sog'ib olingan sigir suti, ming tonna	8404,3	8994,8	9663,2	10005,5	10415,7	10662,3	10930,1	11244,6	11601	11945,5	12423,2

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2014–2024-yillar davomida O'zbekistonda sut ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, jami ishlab chiqarilgan sut hajmi 2014-yildagi 8404,3 ming tonnadan 2024-yilda 12423,2 ming tonnaga yetib, sezilarli darajada oshgan. Bu esa chorvachilik tarmog'ida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ishlab chiqarish samaradorligining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilda 1456,6 ming tonnani tashkil etgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati, Farg'ona viloyati hamda Andijon viloyatida ham yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan. Ushbu hududlarda chorvachilik uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitlari hamda dehqonchilik va tomorqa xo'jaliklarining keng rivojlanganligi muhim omil hisoblanadi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati va Navoiy viloyatida qayd etilgan bo'lib, bu holat mazkur hududlarning tabiiy sharoiti va resurs salohiyati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Toshkent shahrida sut ishlab chiqarish hajmi juda past darajada bo'lib, bu urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan bog'liq.

Samarqand viloyatida ham sutchilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Sut ishlab chiqarishda xo'jalik toifalari kesimidagi farqlar tarmoqning tarkibiy tuzilishi va ishlab chiqarish resurslarining taqsimlanish darajasini aks ettiradi. Ayniqsa, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi va rivojlanish dinamikasini o'rganish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

2021–2025-yillar davomida Samarqand viloyatida sut ishlab chiqarish hajmi barcha xo'jalik toifalarida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, fermer xo'jaliklarida sut ishlab chiqarish hajmi 2021-yildagi 102 460 tonnadan 2025-yilda 142 879 tonnagacha oshib, qariyb 39 foizlik o'sishni tashkil etgan. Bu esa ushbu toifadagi xo'jaliklarda ishlab chiqarish samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi



Shuningdek, dehqon xo'jaliklari sut ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallab, tahlil davrida ishlab chiqarish hajmi 1 216 310 tonnadan 1 318 782 tonnagacha oshgan va 8,42 foizlik o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, Bulung'ur tumani, Jomboy tumani, Ishtixon tumani hamda Urgut tumanida ishlab chiqarish hajmining yuqoriligi ushbu hududlarda chorvachilik faoliyati yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda yillik o'zgarishlar nisbatan tebranuvchan xarakterga ega bo'lib, bu ishlab chiqarish resurslari va tabiiy omillar ta'siri bilan izohlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida sut ishlab chiqarish hajmi boshqa xo'jalik toifalariga nisbatan past bo'lishiga qaramay, 2021-yildagi 2269 tonnadan 2025-yilda 6667 tonnagacha oshib, qariyb 193 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu esa mazkur toifadagi korxonalarda ham ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va samaradorlikni oshirish bo'yicha ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur 3-jadvalda Samarqand viloyatida 2021–2025-yillar davomida fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarilgan sut hajmining hududlar kesimidagi o'zgarish dinamikasi keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Samarqand viloyatining 2021-2025-yillardagi sog'ilgan sut miqdorining tahlil<sup>3</sup>

T/R		Fermer xo'jaliklari					Dehqon xo'jaliklari					Qishloq xo'jalik korxonalari				
		2021	2022	2023	2024	2025	2021	2022	2023	2024	2025	2021	2022	2023	2024	2025
1	Samarqand shahar	0	2	1	10	12	7009	7100	7044	7252	7595	14	175	8	7	32
2	Kattako'rg'on shahar	0	0		0	0	10789	9287	8335	8117	5893	86	64	10	5	205
	tumanlar:															
3	Oqdaryo	18310	21719	24356	24920	25733	48878	51091	51639	58301	59320	1	62	68	28	43
4	Bulung'ur	2743	3191	3460	3508	3490	84137	86796	88038	95641	97543	79	427	435	441	459
5	Jomboy	12429	18975	21478	23770	21932	73433	75521	74112	74869	76005	19	21	78	41	63
6	Ishtixon	4294	4413	5352	5829	7883	122956	126723	131842	134195	134917	5	29	71	123	123
7	Kattako'rg'on	6069	7928	7835	9872	7617	145616	148912	150016	151596	150164	604	246	299	852	316
8	Qo'shrobd	4020	3935	6043	6143	7212	58402	60031	60429	60749	61303	2	81	101	123	176
9	Narpay	5952	6092	6703	7632	8137	77053	79011	80229	84616	86460	146	409	419	425	445
10	Payariq	9839	7733	7961	7988	8665	122991	126624	128725	136542	137309	346	1525	1886	2075	2202
11	Pastdarg'om	11769	12907	13439	14469	15293	115962	119004	121624	125807	127169	269	1132	984	1380	1365
12	Paxtachi	6745	4712	5140	5434	6133	61605	64328	65508	67795	67927	0	0	83	175	235
13	Samarqand	3953	3953	3460	4168	4357	49011	51075	52377	53229	54230	333	390	402	435	435
14	Nurobod	5241	5776	6059	6064	6268	41488	42961	43097	44350	45250	347	124	378	416	425
15	Urgut	5493	5829	7543	7682	8043	119037	122520	125506	127938	128141	19	8	11	240	118
16	Tayloq	5603	10216	10490	11111	12104	77944	78093	79014	80243	79557	0	18	19	20	25
	Samarqand viloyati	102460	117380	129318	138598	142879	1216310	1249074	1267534	1311238	1318782	2269	4710	5250	6785	6667

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Pastdarg'om tumani, Narpay tumani hamda Kattaqo'rg'on tumanida sut ishlab chiqarish hajmining nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatiladi. Bu holat mazkur hududlarda chorvachilikka ixtisoslashuv darajasining yuqoriligi, yem-xashak bazasining mavjudligi hamda aholining chorvachilik faoliyatidagi tajribasi bilan izohlanadi.

Aksincha, ayrim hududlarda sut ishlab chiqarish hajmi nisbatan past darajada saqlanib qolgan bo'lib, bu holat resurslardan foydalanish samaradorligi, tabiiy-iqlim omillari hamda xo'jalik yuritish sharoitlari bilan bog'liqdir.

Sog'in sigirlar soni sut ishlab chiqarishning asosiy resurslaridan biri hisoblanadi va uning o'zgarishi bevosita ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xo'jalik toifalari kesimida sog'in sigirlar sonining dinamikasini tahlil qilish chorvachilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jadvalda Samarqand viloyatida 2021–2025-yillar davomida fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi korxonalarida sog'in sigirlar sonining hududlar kesimidagi o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan (4-jadval).

3 Muallif ishlanmasi



## 4-jadval

Samarqand viloyatining 2021-2025-yillardagi sog'in sigirlar soni tahlili(bosh soni) <sup>4</sup>																
T/R		Fermer xo'jaliklari					Dehqon xo'jaliklari					Qishloq xo'jalik korxonalarini				
		2021	2022	2023	2024	2025	2021	2022	2023	2024	2025	2021	2022	2023	2024	2025
1	Samarqand shahar	0	5	5	15	16	3430	3585	3631	3639	3872	35	82	43	71	67
2	Kattako'rg'on shahar	0	0	0	0	0	6917	6456	6213	5413	3038	306	360	160	160	200
	tumanlar:															
3	Oqdaryo	4645	4378	4508	4516	4689	27167	28428	28883	29297	29814	13	26	31	63	36
4	Bulung'ur	831	888	952	998	1019	54002	55284	56093	56150	57331	42	154	160	160	159
5	Jomboy	4147	3150	4215	4254	7764	44445	45974	46397	45816	31921	123	126	120	82	103
6	Ishtixon	2330	2719	3382	3415	3503	58711	60284	61260	61630	62635	33	20	71	78	84
7	Kattako'rg'on	2976	3488	4722	6257	6116	63857	65226	65364	65642	67449	117	173	577	819	773
8	Qo'shrobd	2563	2628	3144	3580	3688	38485	39448	39743	40116	41564	4	59	74	118	131
9	Narpay	5705	6840	8072	8211	8487	42297	42937	43234	43600	44591	225	224	254	343	315
10	Payariq	4370	3567	3934	4628	5102	54406	56011	56123	55604	53726	238	218	499	534	568
11	Pastdarg'om	5794	6015	6328	6950	7105	72536	73896	75818	76068	77957	311	464	400	809	700
12	Paxtachi	1896	2150	2289	2321	2303	34998	35518	35902	36328	38519	0	0	28	76	89
13	Samarqand	1710	2015	1609	2064	2065	18927	18935	19528	19025	19240	93	215	144	224	221
14	Nurobod	2871	2661	2716	2806	3025	29158	30091	30241	30566	32705	173	212	208	286	315
15	Urgut	2391	2695	2823	2808	2820	81895	81982	82846	82864	82364	5	9	4	88	83
16	Tayloq	1996	2059	2170	2205	2255	46769	44290	45218	45420	48517	0	20	20	23	25
	Samarqand viloyati	44225	45258	50869	55028	59957	678000	688345	696494	697178	695243	1718	2362	2793	3934	3869

4-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida Samarqand viloyatida sog'in sigirlar soni xo'jalik toifalari kesimida turlicha dinamikaga ega bo'lgan. Jumladan, fermer xo'jaliklarida sog'in sigirlar soni 2021-yildagi 44 225 boshdan 2025-yilda 59 957 boshga yetib, qariyb 35 foizga oshgan. Bu esa fermer xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish va nasldor qoramollar sonini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkich fermer xo'jaliklarining chorvachilik, xususan sut ishlab chiqarishdagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini, ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi ortayotganini anglatadi.

Dehqon xo'jaliklarida esa sog'in sigirlar soni nisbatan yuqori ulushni egallagan bo'lsa-da, tahlil davrida umumiy son 678 000 boshdan 695 243 boshgacha oshib, qariyb 2,54 foizlik o'sish kuzatilgan. Bu holat mazkur toifadagi xo'jaliklarning asosan kichik hajmda faoliyat yuritishi, resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlarining nisbatan cheklanganligi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, dehqon xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda barqaror, biroq o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lgan segment sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida esa sog'in sigirlar soni 2021-yildagi 1718 boshdan 2025-yilda 3869 boshga yetib, qariyb 125,2 foizga oshgan. Bunday yuqori o'sish ushbu sektorda modernizatsiya jarayonlarining jadallashgani, zamonaviy texnologiyalar va intensiv ishlab chiqarish usullarining keng joriy etilayotgani, shuningdek investitsiya faolligining ortib borayotgani bilan bog'liqdir [14].

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ayrim tumanlarda, jumladan Kattaqo'rg'on tumani, Pastdarg'om tumani hamda Nurobod tumanida sog'in sigirlar sonining barqaror o'sishi kuzatilgan. Bu esa mazkur hududlarda chorvachilik infratuzilmasi va yem-xashak bazasi rivojlanganini ko'rsatadi.

4 Muallif ishlanmasi



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- hududlar o'rtasida sezilarli narx tafovutlari mavjud bo'lib, umumiy tendensiya sifatida sut narxlarining izchil oshib borayotgani kuzatildi;
- respublikada sut ishlab chiqarish asosan qishloq hududlariga xos ekanligi hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ushbu jarayonda yetakchi o'rin tutishi tasdiqlandi. Kelgusida ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yem-xashak bazasini mustahkamlash va naslchilik ishlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi;
- sog'in sigirlar soni bo'yicha o'tkazilgan tahlillar fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida yuqori o'sish kuzatilganini, dehqon xo'jaliklarida esa o'sish sur'atlari nisbatan past darajada ekanini ko'rsatdi;
- sut narxlarining oshishi ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish zaruratini kuchaytirib, bu holat infratuzilmaning rivojlanish darajasi hamda bozor mexanizmlarining hududlar kesimidagi farqlari bilan bog'liqligi aniqlandi;
- sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida chorvachilikda zamonaviy texnologiyalarni, jumladan avtomatlashtirilgan sog'ish va oziqlantirish tizimlarini keng joriy etish zarur;
- dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, xususan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq;
- hududlar o'rtasidagi narx tafovutlarini kamaytirish uchun logistika infratuzilmasini rivojlantirish, sovutish va saqlash tizimlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi;
- naslchilik ishlarini takomillashtirish va yuqori mahsuldor zotlarni ko'paytirish orqali bir bosh sigirdan olinadigan sut hajmini oshirish zarur.

Umuman olganda, yuqoridagi holatlar sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda logistika tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pardayev K. va boshqalar. Mitigating Impact of Risks on Economic Integration Between Entities in Agrifood Supply Chain // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Vol. 365. – P. 04002.
2. Saydullayeva F. va boshqalar. Dietary Diversity for Ensuring Food Security // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Vol. 365. – P. 01003.
3. Muratov S. va boshqalar. The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region // American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology. – 2022. – Vol. 6. – No. 3. – P. 135–141.
4. Muratov S. A. va boshqalar. Economic Assessment of the Influence of Innovations on Income from Household Activities in the Framework of Digital Economy // Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2023. – P. 33–41.
5. FAO. Dairy Market Review: Emerging Trends and Outlook. – Rome: Food and Agriculture Organization, 2022.
6. Michael Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
7. Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. The Governance of Global Value Chains // Review of International Political Economy. – 2005. – Vol. 12. – No. 1. – P. 78–104.
8. Minten B. va boshqalar. Transforming Agri-food Systems in Developing Countries // Annual Review of Resource Economics. – 2020.
9. Delgado C. Rising Consumption of Meat and Milk in Developing Countries // Journal of Nutrition. – 2003.
10. Pardayev X., Hasanov Sh., Muratov Sh., Amirov Sh., Qalandarov R., Urazov J., Nurullayev U. O'zbekistonda chorvachilik sektorining hozirgi holati bo'yicha hisobot. – Samarqand: SamATI, 2025.
11. Nurullayev U., Urazov J. Qoramolchilikda ozuqa ta'minotini yaxshilash yo'llari // Green Economy and Development. – Vol. 2. – No. 1. – P. 664255.
12. Pardayev K. va boshqalar. COVID-19 Impact to Family Food Consumption and Income in Uzbekistan: Results of an Online Survey // Irrigation and Melioration. – 2021. – Vol. 2021. – No. 1. – P. 63–68.
13. Qalandarov P. X. Самарқанд вилоятида деҳқон хўжаликларига гўшт ишлаб чиқаришнинг иқтисодий таҳлили // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 4. – SamTSAU Conference 1. – P. 1040–1054.
14. Saydullayeva F. va boshqalar. Empirical Analysis of Smallholder Production Effect to Dietary Diversity // Economic Science for Rural Development 2022. – 2022. – Vol. 555.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---